

## GRAFIKA HAQIDA MA'LUMOT

*Usarova Laylo*

*O'zbekiston-Finlandiya. pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti kafedrası  
dotsenti.*

*Xoliqova Zulfiya Yo'lchi qizi*

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Filologiya fakulteti o'zbek tili va adabiyoti  
yo'nalishi 1- bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Grafika bo'limi haqida tilshunoslikdagi turli qarashlar yoritilgan. Olimlarning munozarali fikrlari asosida mavzu muammolari bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** grafika, til, nutq, imlo, fonetik tamoyil, morfologik tamoyil, farqlash tamoyili, grafema.

O'zbek tilshunosligi grammatikasini shakllantirishda turli xil muammolar mavjud. Bu masalada olimlarning qarashlari ham turlicha. Lekin til taraqqiyoti uchun bunday muammolar o'z yechimini topishi, til ma'lum qolipga solinib, o'rganilish va o'rgatilish murakkabliklaridan holi holatga keltirilishi zarur. Shuningdek, tilshunoslikda munozarali bahslarga sabab bo'luvchi grafika bo'limi so'zlar azaldan chuqur o'rganib kelingan. Grafika muayyan tilning fonetikfonologik, leksik-semantik va morfologik birliklarini yozuvda ifodalash uchun shakllantirilgan optik-grafik belgilar tizimidir. Bu tizim belgilarining har biri grafik tilshunoslikda grafemalar sanaladi. [1, –B 87.]. Grafika grekcha “graphikos” so'zidan olingan bo'lib, tilshunoslikda “yozuv” degan manoni anglatadi. Yozuv, umuman olganda, harf yoki chiziq vositasida aks ettiriladigan shartli belgilarning muayyan sistemasidir. Tilshunoslikda yozuvning piktografik, ideografik va fonografik kabi turlari o'rganilgan. O'zbek yozuvi hozirgi holiga kelguncha uzoq tarixiy yo'lni bosib otib, juda ko'p o'zgarishga uchradi. [2, –B 97.]. Bu olimlarning fikrlari bir-biriga ancha o'xshash. Lekin ularning qarashlari har xil. Grafika hozirga qadar o'rganilib

kelayotgan bo'limlardan biri. Chunki onatili asosiy kerak narsa bu- imlodir. Achinarlisi shundaki, imlo yaxshi rivojlanmagan. Hozirga qadar imloda kamchiliklar yetarlicha. Shu sabab olimlarimiz imlo, ayniqsa alifbo ustida ancha izlanishlar olib borishyapti. Biz bu uchun tilimizni shakllantirishimiz kerak birinchi o'rinda. Ona tilimizdagi o'tmishga nazar solsak, bu kunlarga yetishning o'zi bo'lmadi albatta. O'lkamizni bosib olgan turli yovuz kuchlar bizni, avvalo o'z tilimizdan, tariximiz va madaniyatimizdan, din-u diyonatimizdan judo qilishga qayta-qayta urindilar. Ular el-yurtimiz boshiga qanday azob-uqubatlar, kulfat va musibatlar solgani tarixdan yaxshi ma'lum. Nutq ham til va yozuv kabi ikki xil shaklga ega: a) og'zaki nutq; b) yozma nutq. Og'zaki nutq tilning (nutqning) tabiiy holda ko'rinishi. Yozma nutq esa shu tabiiy nutqning yozuvdagi ifodasi. Shunga ko'ra, og'zaki nutq o'zining tabiiyligi, tasir doirasi va talaffuz xususiyatiga ko'ra, yozma nutqdan jiddiy farq qiladi. Og'zaki nutq — fikrni ifodalashning asosiy vositasi. Unda tovush kompleksi, bazan ayrim tovush vositalari bilan fikr bayon etiladi. Nutq organi vositasi bilan fikrni ro'yobga chiqarish va eshitish organi orqali uni uqib, idrok qilish — og'zaki nutqning asosiy xususiyatidan biri. [ 2, –B 98.]. Hozir O'zbekistonda amaldagi (kirillcha) va yangi (lotincha) o'zbek yozuvlaridan foydalanilmoqda. Demak, shu ikki yozuvning imlo qoidalaridan xabardor bo'lish zamon talabidir. Yangi (lotincha) o'zbek yozuvining imlo qoidalari 1995-yilning 24-avgustida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 339-sonli qarori bilan tasdiqlangan va shu yilning o'zida "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" nomi bilan kitobcha shaklida nashr qilingan. U quyidagi 7 bo'limni o'z ichiga oladi: 1. Harflar imlosi: 2. Unlilar imlosi (1-7- qoidalar). 3. Undoshlarimlosi (8—32- qoidalar). 4. Asos va qo'shimchalar imlosi (33—37- qoidalar). 5. Qo'shib yozish (38—50- qoidalar). 6. Chiziqcha bilan yozish (51—56- qoidalar). 7. Ajratib yozish (57—65- qoidalar). 8. Bosh harflar imlosi (66—74-). 9. Ko'chirish qoidalari (75—82-qoidalar qoidalar).[ 1, –B 100.]. Bu bo'yicha har xil izlanishlar mavjud. Lekin ko'p hollarda og'zaki muloqotda ham, yozma muloqotda ko'p hollarda imlo xatolariga yo'l qo'yamiz. Ayniqsa hozirgi kundagi asosiy muammolardan biri h, x harflarini farqlash muammosi bo'lib qolmoqda. Bugungi o'zbek imlosi fonetik,

morfologik, tarixiy-ananaviy, farqlovchi (differensial) va shakliy (grafik) yozuv tamoyillariga tayanadi. Sheva va ayrim shaxslarning nutqidagi xilma-xillikni hisobga olmagan ham og‘zaki nutq tovushining bir-biriga tasir qilishi natijasida so‘z tarkibida, turli xarakterdagi juda ko‘p o‘zgarish sodir bo‘ladi. Bu xilma-xillikning hammasi ham orfografiyada o‘z aksini topaverganda, yozuvda bir xillikni taminlab bo‘lmas edi. Yozuvda bunday nuqsonlarga barham berish uchun orfografiyaning yuqorida sanalgan qoidalari ishlab chiqilgan. [ 2, –B 105.]. Fonetik yozuv. Bu yozuvga asosan so‘zlarga qo‘shimcha qo‘shilishi natijasida yuz bergan fonetik o‘zgarish nutq jarayonida qanday eshitilsa, shunday yoziladi. So‘z tarkibidagi o‘zak va qo‘shimchaning yozuvda eshutilishiga qarab me‘yorlashtirilishi fonetik yozuv deb yuritiladi. Masalan, adabiy talaffuzda jo‘nalish kelishigining asosiy shakli sifatida -ga qabul qilingan. Ba‘zan bu shakl k va q tovushidan keyin -ka, -qa tarzida talaffuz etiladi va shu tarzda yoziladi: terakka, buloqqa. Morfologik yozuv. Fonetik yozuvdan farqli ravishda morfologik yozuvga ko‘ra, tildagi morfemalar nutqda qanday aytilsa yoki eshitilsa, shunday emas, balki asl holicha yozilishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, so‘z o‘zagiga qo‘shiluvchi morfemaning yozuvda to‘liq yoki qisman bir sistema asosida aks ettirilishi yoki ularning variantlaridan birining tanlab olib yozilishi asosida bir xillikka erishish morfologik yozuv deyiladi. Tarixiy-an‘anaviy yozuv. O‘zbek xalqining yozuvi tarixida ko‘pgina so‘z va iboralar borki, og‘zaki nutqda qay tarzda talaffuz etilishidan qat‘i nazar, ularning yozilishida ma‘lum an‘anaga amal qilinadi. So‘z yoki morfemaning hozirgi talaffuz me‘yoriga mos kelmaydigan, tarixiy shaklida yozilishi tarixiy-an‘anaviy yozuv qoidasi asosida. Masalan, hozirgi o‘zbek tilida: buyruq-istak maylining -gin shakli o‘rnida -gil, -gil shakllari: aytgil, urmagil. Farqlash tamoyili nutqimizdagi shakli va talaffuzi bir-biriga yaqin so‘z va morfemalarni yozuvda farqlashni talab etadigan yozuv qoidasi. Masalan: otli — otlik, tonli — tonlik, paltoli — paltolik, yondosh — yondash, qism — qisim, rosa — raso, tanbur — tambur. Shakliy yozuv. So‘zlarni shakliy yozuv asosida yozish — qaysi xalqning tili yoki grafikasidan olingan bo‘lsa, o‘sha etimologik yoki grafik holatini saqlab qolish. O‘zbek tili leksikasida arab, fors-tojik, rus, ingliz tilidan o‘zlashgan qator so‘zlar

mavjud bo'lib, o'zbek xalqi talaffuzida ular o'ziga xos tarzda qo'llanilishi mumkin. Ammo shakliy yozuv qoidasiga muvofiq ularning o'zlari mansub tildagi etimologiyasi saqlab qolgan holda yoziladi. [ 2. –B 106.]. Biz imlo qoidalariga to'liq rioya etib, undan foydalanishimiz lozim. Imlo qoidalari darsliklar uchun, yozma nutqlar uchun ham juda muhimdir. Buning uchun Grafika bo'limini bilishimiz darkor. Hozirgi qadar bu bo'yicha ko'plab izlanishlar olib borilmoqda. Ko'plab olimlarimiz tomonidan imlo qoidalari o'rganilib kelinmoqda. Hatto alifbomizga ham o'zgartirishlar kiritildi. Lekin bu narsani men yoqlamayman. Alifbo o'z joyida qolishi tarafdori edim. H va x harflari bo'yicha ko'proq izlanish olib borish lozim. Chunki bu hozirgacha asosiy muammolardan biri bo'lib qolavermoqda. Balki biz talabalar bu bo'yicha izlanish olib borib, ilmiy ishlar qilib qolarmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: Talqin, 2005. –B.87-100.
2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili.  
3:T.: Fan va texnologiya, 2010. – B.97-98-105-106v